

## O'ZBEKLARDA AN'ANAVIY TURAR JOYLAR VA ULARNING TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: TARIXSHUNOSLIK HAMDA METODOLOGIK ASOSLARI

**Ergashev Baxtiyor Jamil o'g'li**

Uchtepa tumani 62-umumiyl o'rta ta'lim  
maktabining tarix fani o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada XX asr o'rtalaridan boshlab bugungi mustaqillik davrida ham davom etayotgan O'zbek xalqining an'anaviy turar joylari, ularning bu davrdagi har xil transformatsiyalarni boshidan kechirishi asnosida bu jarayonga doir tarixshunoslik va metodologiya tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** Shahrисabz, Kesh, qishloq, voha, yarimo'troq, o'troq, ko'chmanchi turmush tarzi, transformatsiya jarayonlari.

### **ABSTRACT**

In this article, the traditional settlements of the Uzbek people, which have continued since the middle of the 20th century even today during the period of independence, as well as their experience of various transformations during this period, are studied in the historiography and methodology of this process.

**Key words:** Shahrисabz, Kesh, village, oasis, peninsular, settled, nomadic lifestyle, transformation processes.

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются традиционные поселения узбекского народа, продолжавшие существовать с середины XX века и продолжающие существовать сегодня в период независимости, а также их опыт различных преобразований в этот период. и методология этого процесса исследованы.

**Ключевые слова:** Шахрисабз, Кеш, село, оазис, полуостров, оседлый, кочевой образ жизни, трансформационные процессы.

Tarixiy – etnografik adabiyotlarning umumiyl tahlili shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan mavzu hozirgi kunga qadar maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilmagan. Ta'kidlash joizki, turar joylar mavzusi etnograf mutaxasislardan tashqari doimiy arxitektura, me'morchlilik, arxeologiya, san'atshunoslik kabi fan sohalari vakillarining ham qiziqishlari doirasida bo'lib kelgan.

1940-1950 yillarga kelib O‘zbekistonda etnografik tadqiqotlar kompleks tarzda amalga oshira boshlangan. Buning o‘ziga yarasha sababi bo‘lgan, albatta. Chunki ayni shu davrlardan boshlab SSSR FA Etnografiya instituti tomonidan Respublika etnograflari bilan hamkorlikda ko‘p tomli “Jahon xalqlari” seriyasiga kiruvchi “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari” deb nomlanuvchi ikki tomli kitobni yaratish uchun materiallar to‘plana boshlangan edi. Shunga ko‘ra o‘zbek xalqi etnografiyasi, xususan, turar joylariga aloqador katta hajmdagi dala etnografik materiallari ham to‘plangan. Pirovardida uzoq yillar davomida yig‘ilgan dala materiallari asosida amalda O‘zbekistonning turli mintaqalariga xos xalq me’morchilik an’analari hamda uning alohida etnik va lokal (mahalliy) xususiyatlari bo‘yicha boy materiallar qo‘lga kiritilgan.

Shahrisabz vohasi an’anaviy turar joylari mavzusiga u yoki bu darajada aloqador bo‘lgan barcha ilmiy adabiyotlarni hamda tadqiqotlarni konseptual-uslubiy yondashuv va ilmiy qiymati jihatdan shartli ravishda uch guruhgaga ajratish mumkin:

1. Shahrisabz vohasi aholisi an’anaviy turar joylarini 1950-1960- yillarda barpo etilgan uylarni etnografik tadqiqot yordamida o‘rganish
2. Sovet hokimiyati davrida hudud aholisi 1970-1990-yillardagi an’anaviy turar-joylarini o‘rganish borasida olib borilgan maxsus tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar;
3. Mustaqillik davrida xalq an’anaviy turar-joylarining o‘rganilishi.

Birinchi guruh adabiyotlariga to‘xtalishdan avval ta’kidlash joizki, bu davr adabiyotlari aksari tavsifiy xususiyatda bo‘lib, ularda odatda daliliy ma’lumotlar chuqur va har tomonlama tahlil qilinmagan. Voha aholisi bo‘yicha, birmuncha batafsil etnografik ma’lumotlar kam uchraydi. Shu sababdan tadqiqot ishlari natijasida vohaning 50-yillarda qurilgan uylariga borib tadqiqot o‘tkazildi. Dastlab qishloqlar ma’lum reja asosida barpo etilmagan. Uylar ham hovlining turli burchaklarida qurilavergan. Bu turdagи uy joylarning xo‘jalik binolari bitta faqatgina uy-joy ya’ni yotoqxonasi bo‘lak bo‘ladi. Voha o‘zbeklarida besh, olti, yeti, hattoki, to‘qqiz , o‘nta kelinni bir hovli atrofida jibslashtirilgan oila vakillari ham mavjud bo‘lganligini tadqiqotlar davomida bilib oldik.<sup>1</sup> Dastlab u kabi uylar devor bilan o‘rab olinmagan. Mahalliy aholi tomonidan o‘zi yashayotgan joyning etimologik tarixi haqida ko‘plab qo‘lyozmalar saqlanib qolgan. Masalan, Sayyod qishlog‘i haqida Rahmatulla Musurmonov tomonidan “Besh muchal saboqlari” kitobi chop etilgan.<sup>2</sup> Bu kitobda muallifning bolalik xotiralari aholining etnik tarkibi va etnografiyaga oid bo‘lgan ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.<sup>3</sup> Kitobda doimiy uy-joylari, qurilish materiallari va uylarning ichki jihozlari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

<sup>1</sup> Dala materiallari Garov qishlog‘I 2021 yil

<sup>2</sup> Dala materiallari Sayyod qishlog‘I 2021 yil

<sup>3</sup> Dala materiallari Sayyod qishlog‘I 2021 yil

Kitobda qishloqning paydo bo‘lish tarixi ham yozilgan. Qishloqni XVI asrda paydo bo‘lganligi aytildi. Asosan ilmiy ishimning Shahrисabz tumanining ikki hududiga olib borildi. Yuqorida takidlaganimdek, tog‘lik hududlardagi aholining etnik tarkibi hamda ularning turar-joylari qay yusnda bo‘lganligini tadqiqot davomida o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra aholining 1950-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr oralig‘ida uy-joylar qurilishida hamda ularni qanday materialdan qurbanligi, ularning xo‘jalik binolari qanday vazifalarni bajarganligini o‘rganib chiqildi. Mavzu doirasida adabiyotlar kam bo‘lganligi uchun ilmiy ishimimiz, dala materiallari asosida yozildi. Tadqiqotning ikkinchi mashrutini biz Shahrисabzning tekislik hududidagi aholining moddiy madabiyatini, uy-joylarini, hamda tog‘lik hududlarda o‘rganilgan barcha xo‘jalik binolarini o‘rgandik. O‘rganish davomida har bir mavzuga doir ma’lumotlarni olishda aholining 50 yoshdan oshgan qismidan ilmiy ish uchun dala materiallarini yig‘dik. Asosan, respondetlarimiz qishloqning uysoz ustalar, duradgorlar, paxsachilardan tashkil topadi. Shahrисabz tumanining aholisining uy-joylarini o‘zaro qiyoslash uchun, birinchi Qashqadaryo hududi ichida cho‘l mintaqalardagi aholining uylari bilan qiyoslanadi. Bu qiyosda t.f.n. O. Bo‘riyevning maqolasidan foydalandik. Bu maqola yordamida vohaning cho‘l hududlarida istiqomat qiladigan aholining uy-joylari, ularni qurish bilan bog‘liq turli xil urf-odatlар, irim sirimlar, biz o‘rganayotgan hudud bilan o‘xshash hamda farqli tomonlarini tadqiq qildik.

1960-1970 yillarda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yarimo‘troq va yarimko‘chmanchi turmush kechiruvchi qoraqalpoq, qirg‘iz, qurama, qipchoq va boshqa etnik jamoalar moddiy madaniyatining turli masalari bo‘yicha L.S. Tolstova, A.K. Antipina, T Fayziev, K.SH. Shoniyoziyev, B.X. Karmisheva, N. Borozna va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy tadqiqotlarini o‘rganib chiqdik.

Bu davrda olib borilgan ilmiy izlanishlarning muhim bir jihatni etnografik tadqiqotlar bilan mahalliy xalqlar vakillari ham shug‘ullana boshlaganlidadir. An‘anaviy turar joylar bo‘yicha boy etnografik ma’lumotlar mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham ilmiy muomalaga kiritilgan. Masalan, Shahrисabz vohasi qishloq aholisining an‘anaviy turar joylari bo‘yicha eng boy va qimmatli ma’lumotlar Rahmatilla Musurmonov, Ochil Bo‘riyevga tegishli nomli kitobda keltirilgan. Ushbu asar mualliflarning 1970-1978 yillar davomida O‘zbekistonning turli viloyatlaridan to‘plagan dala etnografik materiallari asosida yozilgan bo‘lib, unda Qashqadaryo aholisi an‘anaviy manzilgohlari, turar joy va uylari, ular bilan bog‘liq urf-odatlarga oid juda ham ko‘p daliliy materiallar mavjud. Tadqiqotlarda O‘zbekistondagi aholi manzilgohlarni har xil relyefda joylashishi bo‘yicha; voha, tog‘ oldi tekislik, tog‘ va cho‘l-dasht tumanlaridagi aholi punktlariga ajratib ko‘rsatganlar va uy-joylarning tipologiyasini ishlab chiqishga harakat qilganlar. Bundan tashqari H. Ismoilovning vodiylar qishloqlaridagi o‘troq aholining turar joylariga bag‘ishlangan alohida maqolasi

ham nashr etilgan. Mazkur maqola turar joylarning sovet hokimiyati yillarida kolxozlarda yangicha (europacha) tipdagi uy-joylar barpo etilishiga qaratilgan bo‘lib, an’anaviy xalq turar joylari bo‘yicha faqat umumiy ma’lumotlar berilgan. O‘rta Osiyo xalqlari turar joylari xususidagi umumlashtiruvchi etnografik material sifatida esa 1982 yilda Moskvada chop etilgan “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari uy-joylari” nomli to‘plamni ko‘rsatish mumkin. Mazkur to‘plam sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasi Etnografiya instituti tomonidan chop etilgan O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning tarixiy- etnografik atlasiga bag‘ishlangan tadqiqot materiallarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Garchi to‘plamdan Shahrisabz vohasi aholisining turar joylariga bevosita aloqador bo‘lgan maqolalar o‘rin olmagan bo‘lsada, undagi O. A Suxareva, N. O. Tursunov va V. L. Voroninaning maqolalari bizning tadqiqotimiz uchun nazariy- metodologik jihatdan e’tiborlidir.

Masalan, O. Suxareva va N. Tursunovning hammualliflikda yozgan maqolada O‘rta Osiyo xalqlari an’anaviy manzilgohlarining umumiyyatsnifi keltirilgan. Mualliflar aholininig mashg‘ulotlari va turar joylarni butun mintaqada yoki uning ma’lum qismida tutgan o‘rniga qarab manzilgohlar tipologiyasini ishlab chiqishgan. Ular O‘rta Osiyo manzilgohlarini shaharlar, savdo va hunarmand qishloqlari, qadimiy sug‘orma dehqonchilik hududlari, lalmi, tog‘ va dasht tumanlaridagi qishloqlar, yarimko‘chmanchi aholi turar joylari va ko‘chmanchi aholining ovullari kabi tiplarga ajratganlar. Ta’kidlash joizki, K. SHoniyofov va H. Ismoilov hamda O. Suxareva va N. Tursunov tomonidan ishlab chiqilgan manzilgohlarning umumiy tasnifi o‘z navbatida Tojikiston haqida yozilgan.

1988 yili O. Ibrohimov tomonidan “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Janubiy O‘zbekistonning cho‘l zonalaridagi aholi uy- joylarining rivojlanishi tarixi” mavzusida dissertatsion tadqiqot bajarilgan. Ish o‘zbek xalqi uy-joylarining rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan dastlabki dissertatsion tadqiqotdir. Lekin mazkur

tadqiqotning ob’ekti O‘zbekistonning janubiy viloyatlari hisoblanadi va asosan cho‘l zonalaridagi uy-joylarning rivojlanish tarixini ko‘rsatib berishga qaratilgan. Umuman, mazkur tarixshunoslik davrini tadqiqot qilish jarayonida tadqiqotning tahlili va mazmunida metodologik jihatining sezilarli darajada kuchayganligini qayd etmasdan o‘tish mumkin emas. Chunonchi, ushbu davrda moddiy madaniyat tipologiyasiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida mahalliy aholining manzilgohlari, uy-joylari, an’anaviy hayot tarzi va urf-odatlarini o‘rganish zaruriyati bilan bog‘liq edi.

Mustaqillik davrida barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning uyg‘unligi uchun ilmiy tadqiqotni mafkuralashtirishdan doimo uzoqlashib borish va muammoga ob’ektiv yondashish xosdir. Bu davrda barcha ijtimoiy- gumanitar fanlar qatori etnografiya ham jiddiy o‘zgarishlarga uchrab, kommunistik mafkura qolipidan holi, yangicha ko‘rinish

ola boshladi. Avvalo, bu fan etnologiya deb atala boshlandi. Endilikda, “mutaxasis olimlar tomonidan nafaqat an’anaviy bo‘lib qolgan tarixiy-etnografik tadqiqotlar, balki dastlabki professional etnograflar kabi “an’anaviy zamonaviylik”ni va bugungi kunda muhim deb e’tirof etilayotgan ijtimoiy-madaniy innovatsiyalar, an’anaviy jamiyatning zamonaviy hayotini tadqiq qilinmoqda”<sup>1</sup>. Lekin “ayni vaqtida moddiy madaniyat(jumladan, turar joylar – X.I.) bilan muayyan darajada bog‘liq bo‘lgan masalalar hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q”<sup>2</sup>. Qolaversa, keyingi yillarda turli xalqlarning madaniyati masalalarini o‘rganishda madaniy mansublikka asoslangan nazariy yondashuvlar etakchi o‘rin egallay boshladi. Mustaqillik davrida o‘zbek tadqiqotchilar tomonidan ko‘proq o‘zbek xalqining uy-joylarni tiklash bilan bog‘liq urf-odat va marosimlariga taalluqli qator maqolalar yozildi. Qator tadqiqotchilar, jumladan, G. Zunnunova o‘z ishida asosan Toshkent shahri o‘zbeklarining uy-joylar bilan bog‘liq urf- odatlari, O. Bo‘riyev Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining uy-joylari, X. Kichkilov esa Surxondaryo vohasi qo‘ng‘irotlarining o‘tovlari masalalariga asosiy e’tiborni qaratganlar. I.Jabborovning o‘zbek xalqi etnografiyasiga bag‘ishlab yozgan asarlarida ham Shahrисabz aholisi an’anaviy turar joylariga oid ma’lumotlar uchramaydi.

Shuningdek, 90-yillarda o‘rganilayotgan muammoga bevosita aloqador ba’zi ishlar Rossiyada ham nashr etildi. Masalan, rus elshunosi A. Jilinaning O‘rta Osiyo o‘troq dehqonlarining an’anaviy uy-joylari turlariga bag‘ishlangan maqolasi chop etilgan. Maqola yangicha ilmiy- nazariy yondashuvlar asosida qiyosiy-tahliliy uslubda yozilganligi bilan diqqatga sazovordir. Lekin maqolada o‘troq dehqonlarning uy-joylari turlari borasida fikr yuritganligi hamda umumlashtiruvchi qiyosiy- tahlil etilganligi bois aynan vohaga xos xususiyatlar alohida ajratib ko‘rsatilmagan. SHu o‘rinda O‘rta Osiyoda yashovchi chorvador xalqlarning ko‘chma uy- joylari bo‘yicha umumlashtiruvchi to‘plam ham mustaqillik davrida rus tadqiqotchilar tomonidan yaratilganligini ta’kidlash joiz.

O‘rganilayotgan hududda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin aynan etnografiyaga oid bo‘lgan ishlarni kam uchratamiz. Qashqadaryo vohasida tarixning turli davrlariga xos bo‘lgan moddiy madaniyat turlari saqlanib qolganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Vohada arxeologik, arxetektura yodgorliklarini ko‘plab bor. Ayniqsa, Amir Temur hamda Temuriylar davriga oid bir qancha yodgorliklar saqlanib qolgan. Bizga o‘sha davrning uylari, aholi turmush tarzi qay darajada bo‘lganligini Shahrисabzdagi Temuriylar davridagi bunyod etilgan me’moriy obidalar ( Dorut-

<sup>1</sup>Ashirov A.A. Zamonaviy o‘zbek etnologiyasi: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari // Markaziy Osiyoda an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. I – qism. - T., 2005. - B. 36-44.

<sup>2</sup> Doniyorov A.X. Etnografik ishlarni takomillashtirish va rivojlantirish istiqbollari // Markaziy Osiyoda an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. I – qism. - T., 2005. - B. 6-36.

tilovat, Dorus-siyodat, Ko'kgumbaz, Oqsaroy, Jahongir maqbarasi va boshqa) dan bilib olsak bo'ladi. Janubiy O'zbekistonda Mustaqillikdan oldingi davrda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. O'rta Osiyo mintaqasining janubiy hududlarining etnologik tadqiqot ishlarini o'rgangan tadqiqotchi olimlardan S.M. Abramzon, Ananev A.G.Tolstov S.P. Fayziev T, Jarring G, Schurmann H. Plar hisoblanadi

Shular bilan birgalikda ularning uy-joylari qurulish usuli va ularda ishalatiladigan ashyolar haqida ham ko'plab ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Biz ham o'z dissertatsiyamizni yozish jarayonida dala etnografik tadqiqotlardan foydalandik. Ishimiz doirasida Shahrisabz tumani Bog'ishamol MFY ga qarashli bir qancha qishloqlarga bordim. **Qorapoycha, Do'ngqishloq, Avazmalik, O'rmontepa, Shanbe, Abziyat, Mo'minabod, Namaton, Garov: Langar, Kengquli, Qoraqush** kabi Shahrisabz tumani doirasidagi qishloqlarga borib tadqiqod ishlarini olib bordik. Undan tashqari vohanining tog'lik hududlarida ham tadqiqotlar olib borib dala materiallari to'plandi. Asosan **Sayyod, Sarchashma, Langar Kengquli** kabi qishloqlariga dala tadqiqot ishlarini olib bordik. Bu hududning aholisi bilan asosan o'z ishimiz doirasida anketa savollarini to'ldirdik. Asosan aholidan qishloqlarining kelib chiqish tarixi, u yerda aholining etnik tarkibi, xo'jaligi, turar-joylarni qay yo'snda barpo etilishi haqida suhbatlar olib borildi. Aholi vakillarining aytishicha Sayyod so'zining ma'nosi "ovchi" degan ma'noni beradi.<sup>1</sup> Bu qishloq haqida qishloqning aholisi quyidagicha tariff aytadi - "Buxoro xonligi davrida Xon uchun maxsus ovchilar guruhi tashkil etilib Buxorodan Qashqadaryoning tog'lik ovloq joylariga yuborilgan. Keyinchalik vaqtlar o'tgan sari ovchilar bu hududni o'zlashtirib shu yerning muqum aholisiga aylanadilar"<sup>2</sup>. O'zaro qiyoslash doirasida hududning Tekislik vohalaridagi aholi vakillari bilan tog'lik mintaqalardagi aholining turar joylari, moddiy madaniyati, xo'jaligi va aholisining etnik tarkibi solishtirildi. Yana bevosita aholining uy qurish jarayonida ishtirok etildi. Shu uy qurush jarayoni shaxsiy kuzatish usulidan foylanildi.

Ayni dissertatsiya doirasida hudud bo'yicha yozib qoldirilgan mahalliy aholining qo'lyozma manbalari bilan tanishdik. Tadqiqot davomida qishloqning aholisi tomonidan qishloq va u yerning xo'jaligi aholining etnik tarkibi va u yerda istiqomat qiluvchi aholining shajarasi haqida yozilgan "Besh muchal saboqlari" kitobi qishloq aholisi tomonidan ma'lumotlari boyitilgan. Bundan tashqari turar-joylarni tavsiflash etnografiya fani uchun an'ana hisoblanadi. Ularni klassifikatsiya qilish: turar joylarni qurilgan davriga qarab, yoki mintaqa bo'yicha turar-joyni qurish uchun ishlatilgan mahsulotga qarab tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda tog'lik hududlarda aholi vakillari ko'pincha yog'ochdan "sinchdan" uylarni bunyod etadilar,

<sup>1</sup> Dala materiallari Sayyod qishlog'i 2021 yil

<sup>2</sup> Dala materiallari Sayyod qishlog'i 2021 yil

chunki bu hududda ko‘plab zilzilalar bo‘lganligi sababli sinch uy asqotadi deydi-qishloq oqsoqoli.<sup>1</sup> Cho‘l mintaqalarida istiqomat qiluvchi aholi vakillari esa paxsadan uy joylarni quradilar. Tadqiqot davomida turar-joyar bilan bog‘liq urf odat hamda an’analor o‘rganildi. Masalan uyga kiraverishda isiriq hamda qalampir osib qo‘yilgan. Bunda ramziy ma’no borligini kuzatishimiz mumkin. Qishloq aholisining nazdida oilada hamda uyda istiqomat qiluvchi aholi kasal bo‘lmasligi uchun –“isiriq” osib qo‘yilgan Sayyod aholisi isiriqni ming dardga davo deyshadi.<sup>2</sup> Bu kabi irimlar boshqa qismlarda batafsil yoritilgan. Undan tashqari turarjoylardagi ramzlar (symbolika) va symyotika kabi masalalar yondashuvlar asosida o‘rganildi.

Turar-joylarni tavsiflaganimizda, asosan, hozirgi davrimizga ham o‘sha XIX asrdagi qurulish an’analari saqlanib qolganligini tadqiqot davomida kuzatishimiz mumkin. Ayni shu mavzu doirasida ko‘plab ilmiy adabiyotlar, ilmiy ommabop jurnallar O. A Suxareva, N. O. Tursunov va V. L. Voroninaning maqolalari va O. Suxareva va N. Tursunovning hammualliflikda yozgan maqolada O‘rta Osiyo xalqlari an’anaviy manzilgohlarining umumiy tasnifi keltirilgan etnik jamoalar moddiy madaniyatining turli masalari bo‘yicha L.S. Tolstova, A.K. Antipina, T Fayziev, K.SH. SHoniyofov, B.X. Karmisheva, N. Borozna va boshqa tadqiqotchilarining ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, ishda K.SH. SHoniyofov, I.M. Jabborov, H.I. Ismoilov, N.O. Tursunov, A.N. Jilina, B.X. Karmisheva, B.V. Andrianov, O. Suxareva, P. Potapov va A. Meytsen kabi etnograf-olimlar tomonidan ishlab chiqilgan muhim ilmiy-nazariy xulosalar hamda metodologik asoslarga tayanildi.

Tadqiqot davomida quyidagi dissertatsiyalar bilan tanishib chiqdim. **Salohiddinova Dilorom Zuxurovna “O‘zbekiston me’morchiligidagi hovli an’analaring shakllanishi hamda rivojlanishi”, Hasanov Akrom Mo‘minovich “XVI-XIX asrlarda shaharsozlik hamda me’morchilik”, Xo‘Jaxonov Ismoiljon Mansurovich “Farg‘ona vodiysi qishloq aholisi an’anaviy turar joylarining etnohududiy xususiyatlari”** kabi ilmiy ishlarni asos qilib oldim. Undan tashqari Doniyorov A.H. Etnografik ishlarni takomillashtirish va rivojlantirish istiqbollari // Markaziy Osiyoda an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar: «Akademik Karim SHoniyofov o‘qishlari turkumidagi» xalqaro ilmiy anjuman materiallaridan ham ancha ma’lumotlar to‘plandi. Ilmiy ishimning bir qismi me’morchilik bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun, Shahrisabz shahridagi Temuriylar davriga oid bo‘lgan me’moriy obidalarni o‘rgandim. Ularni bajaradigan vazifalariga qarab tavsiflab chiqildi. Tadqiqot davomida, aynan, Shahrisabzda XIV asrda bunyod etilgan me’moriy obidalarning turli hudud uslublari uyg‘unligida barpo etilgani kuzatildi. Yana e’tibor

<sup>1</sup> Dala materillari Sayyod qishlog’I 2021 yil

<sup>2</sup> Dala materillari Sayyod qishlog’I 2021 yil

beriladigan asosiy masalalardan biri, turar-joylarning transformatsion rivojlanish bosqichlari bo‘ldi. Shu paytgacha Farg‘ona vodiysida t.f.n. I.Xo‘jaxonov turar-joylarni turli xil uslubda tavsifalagan:

- Doimiy uy-joylar, ularning turlari va tiklash usullari;
- Uylarning ichki jihozlanishi;
- Ovul tipidagi manzilgohlar va ularning vodiy hududida joylashuv xususiyatlari;
- Ko‘chma uy-joylarni tiklash va jihozlash usullari;
- Mavsumiy turar joylar va ularning o‘zgarish dinamikasi: ijtimoiy-iqtisodiy omillari;
- Uy-joylarni tiklash bilan bog‘liq urf-odat va rasm-rusmlar kabi masalalar o‘rganilib chiqilgan.

XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib jamiyatda sanoatlashuv, modernizatsiyalashuv, zamonaviy o‘zgarishlar kabi jarayonlarda turar-joylardagi transformatsiyalashuv jarayonlar kuchaydi. Turar-joylarni etnografik jihatdan turli usullarda tadqiq etish mumkin. Masalan moddiy madaniyat bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, uyni qanday ashyodan barpo etilgani, uy qanday vazifalarni bajargani, uyning ichki jihozlanishi qay yusnda bo‘lganligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Shahrisabzda etnografik tadqiqotlar juda kam olib borilganligini, faqatgina O.Bo‘riyevning Janubiy cho‘l mintaqalardagi aholining turar-joylarini o‘rganganligi biz o‘rganayotgan hududga qiyoslash uchun manba vazifasini o‘tadi. Tadqiqotda etnografik metodlardan:

- Voha bo‘yicha yozilgan maqolalar hamda adabiyotlar bilan tanishish;
- Kuzatuv natijasida aholining ijtimoiy turmush darajasini o‘rganish;
- Anketa so‘rovnama;

Tadqiqot davomida qishloqlarning ijtimoiy ahvoli bilan birga xo‘jalik hayotini ham o‘rgandik. Qiyosiy tahlil natijalari ham o‘rganildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ashirov A.A. Zamonaviy o‘zbek etnologiyasi: yutuqlar, muammolar va rivojlanish istiqbollari // Markaziy Osiyoda an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. I – qism. - T., 2005. - B. 36-44.
2. Doniyorov A.X. Etnografik ishlarni takomillashtirish va rivojlantirish istiqbollari // Markaziy Osiyoda an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. I – qism. - T., 2005. - B. 6-36.
3. Dala materiallari Sayyod qishlog‘I 2021 yil
4. Dala materiallari Garov qishlog‘I 2021 yil